



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

## AYOLLAR JINSIY A'ZOLARINING SPETSIFIK YALLIG'LANISH KASALLIKLARI.

**Aminova Mohinur Normurod qizi**

[aminovamohinur133@gmail.com](mailto:aminovamohinur133@gmail.com)

**Safarov Sarvarjon Chori o'g'li**

[sarvarsafarov2299@gmail.com](mailto:sarvarsafarov2299@gmail.com)

**Rahmatullayeva Shahlo Sherzod qizi**

[rahmatullayevashahlo9@gmail.com](mailto:rahmatullayevashahlo9@gmail.com)

**Asadullaev Asliddin Alisher o'g'li**

[asadullayevasliddin2025@gmail.com](mailto:asadullayevasliddin2025@gmail.com)

**G'ulomov Jaloliddin Jabbor o'g'li**


[gulomovjalol56@gmail.com](mailto:gulomovjalol56@gmail.com)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**

**Annotatsiya:** Ayolning yallig'lanish kasalliklari ginekologik kasalliklar orasida uchrash soni bo'yicha birinchi o'rinlardan birida turadi. Ularning bu qadar ko'p uchrashida ayol organizmidagi anatomo-fiziologik xususiyatlar aloxida o'rin tutadi. Ularga jinsiy organlarni tashqi ta'sirga yaqinligi, xayz funksiyasiga bog'liq bo'lgan xar oydagi siklik o'zgarishlar, xamda abort va tug'ruq vaqtida ko'p yoki kam miqdordagi jinsiy yo'llar to'qimasining travmatizatsiyasi kiradi. Bundan tashqari homiladorlik vaqtida organizmning kasal tug'diruvchi tashqi muxitning turli ta'sirlariga qarshiligining kamayishi, to'qimalar shikasti, operativ aralashuvlar, postgemorragik anemizatsiya bilan qo'shib kelganda yallig'lanish jarayonining rivojlanishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** Ginekologik yallig'lanish kasalliklari, pelvioperitonit, salpingooforit, sitomegalovirus, vulvit.

Ichki jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklari ginekologik kasalliklar ichida asosiy o'rinni egallaydi. So'nggi yillarda ko'proq yoshlarda, asosan 15- 25 yoshda uchraydi, u uzoq vaqt kechishiga olib kelib, yallig'lanish kasalliklari og'riq sindromini, bachadonni noto'g'ri joylashishi, hayz buzilishini, jinsiy va generativ funksiyaning buzilishi bilan kechadi. Hozirgi paytda yallig'lanish kasalliklarining klinikasi va






strukturasi o'zgarib bormoqda, birlamchi parametrit va pelvioperitonit miqdori pasayib surunkali salpingooforit uchrashi ko'payib bormoqda.

Yallig'lanish kasalliklarni o'tkir, nim o'tkir darajalari patogenezida qo'zg'atuvchi mikroob muxim rol' o'ynaydi. Uning kechishi bilan yallig'lanish o'chog'ini chegaralashga qaratilgan organizmning qarshilik reaksiyalari ishga tushadi. Kasalliklarning surunkali bosqichlarida qo'zg'atuvchi o'zining patogenetik axamiyatini yo'qotadi. Bu faktni davolash choralarini tanlashga xisobga olish o'ta muxim axamiyatga ega. Jarayonni avj olishi ko'pincha infeksiyaga bog'liq bo'lmay .efik faktorlarning ta'siri tufayli vujudga keladi. Bularning xammasi bosh miya po'stlog'idagi turib qolgan o'choq qo'zg'aluvchanligining reaksiyalarini kuchaytiradi. Klinik jixatdan bu xolat oddiy yallig'lanish jarayoni ko'rinishida kechadi.

Organizmdagi mavjud yallig'lanish o'chog'i markazi nerv sistemasi xolatiga ta'sir ko'rsatadi (gipotalamo-gipofizar bo'linga). Kasalliklarning surunkali kechishida chanoq organlarining nerv sistemasi xam patologik jarayonga tortiladi. Rivojlanayotgan vegetativ-nevrogenik o'zgarishlar qorin bo'shlig'idagi tugunlarni shikastlab chiqish xarakteriga ega. Surunkali yallig'lanish jarayoniga ko'pincha gipotoniya va qon tomir sistemasidagi buzilishlariga olib keladi. Odatda, jinsiy organlar qon ta'minoti defesiti aloxida o'rin tutadi.

Ayollar jinsiy a'zolari yallig'lanish kasalliklari rivojlanishiga ko'pincha anamnezida bachadon ichidagi tadbirlar (tug'ruqda bachadonni qo'l bilan tekshirish, abort, bachadon shilliq qavatini diagnostik qirib olish, bachadon ichiga Kontratseptiv vosita kiritish), jinsiy aloqaning o'smirlik yoshida boshlanganligi, jinsiy hayotning pala-partishligi va boshqalar katta ahamiyatga ega. Kasallanish boshlanishiga yana ko'pgina sharoitlar sababchi bo'ladi, bular sovuq qotish, yelvizak, ekstragenital kasalliklar, stresslar va asosiysi immun tizimi faoliyatining pasayishi. Ayollar organizmida yallig'lanish jarayoniga qarshi himoya kuchlar mavjud. Bular qin dahlizining berkligi, qin shilliq qavati ko'p qavatli muguzlanuvchi epiteliy bilan qoplanganligi, bachadon bo'ynining ichki va tashqi bo'g'zi va servikal kanalidagi shilliq probkasi. Yana bir to'sig'i bu shilliq tarkibida mikroblarga qarshi ishlab chiqariladigan IgA antitanachalar. Yallig'lanish tarqalishiga yana bir to'siq bu bachadon shilliq qavati va uning har hayz paytida ko'chib turishi va nihoyat bachadon naylari siliar apparatining Harakatlanishi va ichidagi suyuqlikning faqat bachadon tomoniga yo'llanishi.






Kasallikning surunkali bosqichida orttirilgan umumiy funksional buzilishlar asosiy o'rinni egallaydi (nerv, endokrin, qon tomir va boshqa tizimlarning tuzilishlari). Hozirgi vaqtda ayollar jinsiy a'zolari yallig'lanishini stafilokokk, aerob va anaerob infeksiyalar, patogen flora va viruslar keltirib chiqaradi. So'nggi o'n yillik mobaynida yallig'lanish kasalliklariga olib keladigan yangi generatsiya, ya'ni jinsiy yo'llar bilan tarqaladigan infeksiyalar – xlamidiyalar, ureaplazmalar, mikoplazmalar, viruslar (sitomegalovirus, oddiy herpes virusi) va boshqalar ko'proq uchramoqda. Mikroorganizmlar har xil assotsiatsiyalar ko'rinishida ko'proq uchraydi.

Reproduktiv yoshdagi ayollarda vulvit ko'pincha kolpit, servitsit, endometrit oqibatida qindan chiqadigan ajralmalar tarkibidagi patogen mikroorganizmlar tashqi jinsiy a'zolariga infeksiya yuqtirish oqibatida yuzaga keladi. Birlamchi vulvitning rivojlanishiga bichilish, tashqi jinsiy a'zolar gigiyenasiga rioya qilmaslik, kimyoviy, termik, mexanik ta'sirlar, endokrin kasalliklar, perional sohadagi yallig'lanish kasalliklari sabab bo'ladi. Ikkilamchi jarayon ko'pincha vulvovaginit xarakteriga ega. Vulvit o'tkir fazada tashqi jinsiy a'zolarining giperemiyasi, shishishi, seroz yiringli va yiringli qoplam bo'lishi bilan xarakterlanadi. Subyektiv shikoyatlarga: og'riq, achishish, um u m iy holsizlik kiradi. Vulvitning surunkali bosqichida giperemiya, shish, eksudatsiya, qichishish kamayadi, lekin vaqt-vaqti bilan takrorlanib turadi.

Kolpitni aniq turdagi bakteriyalar yoki ularning 2—3 xil qo'zg'atuvchisidan tarkib topgan assotsiatsiyalari keltirib chiqarishi mumkin. Bakterial kolpit ko'pincha servitsit, bachadon bo'yni psevdoroziyasi, ba'zan uretrit va vulvit bilan kechadi. Kasallikning o'tkir bosqichida bakterial kolpit giperemiya, shilliq qavatning shishi, eksudatsiya, seroz yiringli, yiringli ajralmalar bilan kechadi. Yallig'lanish jarayonining o'tkir osti bosqichidan oldin giperemiya, shish, eksudatsiya kamayadi. Bunda kolposkopiya qilinganda giperemiya va shishdan tashqari nuqtasimon qon quyilishlar aniqlanadi. Surunkali bosqichda giperemiya va shish yo'qoladi, o'zgarishlar faqat kolposkopiya da aniqlanadi. O'tkir kolpitda bemorlarni og'riq, qichishish, achishish, ba'zan peshob vaqtidagi og'riq bezovta qiladi. Kasallikning surunkali bosqichida og'riq hissi kamayib, seroz, ayrim hollarda esa yiringli ajralmalarning jinsiy yo'llardan kelishi asosiy belgi hisoblanadi.

Siydik tanosil sistemasi xolatini baxolash maqsadida tekshiruvni tashqi jinsiy organlardan sinchiklab boshlash kerak. Vul'vo bartolin bezlari yo'llarining chiqish





joylari, parauretral yo'llar, uretra, qinga kirish soxasining shilliq pardasida o'zgarishlar kuzatiladi.

Tashqi jinsiy organlar ko'rilgandan so'ng, qin va bachadon bo'yni ko'zgularda tekshiriladi rektal tekshiruv kasallik etiologiyasini aniqlash maqsadida puxta anamnez yig'ish, bemorlarni sinchkovlik bilan tekshirish, lozim bo'lgan bakteriologik va bakterioskopik tekshiruvlarni o'tkazish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Allayorov Ya.N., Yusupova D.O'., Asqarova F.Q. "Akusherlikda amaliy ko'nikma va muolajalar", Samarqand, 2007.
2. Бодяжина В.И., Жмакин К.Н. Гинекология, Т.: „М е д и ц и н а 11, 1979.
3. Ginekologiya. Ayupova F.M., Jabbarova Yu.K. Toshkent, 2006 g
4. Акушерство. Аylamazyan E.K. Moskva, 1998 y.
5. Акушерство. Saveleva G.M. Moskva. 2002y.

